

**PO‘LAT SOLIYEV – O‘ZBEK TARIXSHUNOSLIGIDAGI ILMIY MAKTAB
ASOSCHISI**

ORIENTAL UNIVERSITETI 70220301

-Tarix ixtisosligi II kurs Magistri

Jalilov Asqar Yo‘ldosh o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning birinchi yarimlarida ilmiy faoliyat yuritgan zabardast ilm-fan arbobi, o‘zbek milliy tarixshunosligimizning ulug‘ vakili, ma’rifatparvar olim, o‘zbek milliy tarixshunosligi sohasi rivojiga o‘zining benazir hissasini qo‘shgan ulkan tarixshunos olimi, birinchi o‘zbek milliy tarixchilik maktabi asoschisi olim Po‘lat Majidovich Soliyevning olimlik faoliyatidagi muhim jihatlarni, ilmiy pedagogik faoliyatning o‘ziga xos muhim qirralarini hamda o‘zbek milliy tarixchilik maktabi asoschisi sifatidagi ilmiy tadqiqotchiligidagi erkin va mustaqil fikr-mushohadalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib o‘tamiz...

Kalit so‘zi: XX asr boshlari o‘zbek milliy tarixchiligi. XX asr birinchi yarimlarida o‘zbek milliy tarixshunosligi. Po‘lat Majidovich Soliyev – o‘zbek milliy tarixchilik maktabi asoschisi.

**POLAT SOLIYEV IS THE FOUNDER OF THE SCIENTIFIC SCHOOL OF
UZBEK HISTORIOGRAPHY**

ORIENTAL University 70220301

-2nd year Master's student, majoring in history

Jalilov is the son of Askar Yoldosh

Annotation: In this article, the important aspects of the scientific activity of Polat Majidovich Soliyev, a great scientist who worked scientifically in the first half of the 20th century, a great representative of our Uzbek national historiography, an enlightened scientist, a great historical scientist who made an invaluable contribution to the development of the field of Uzbek national historiography, the founder of the first Uzbek national school of history, and the scientific pedagogic activity itself let's look at the important aspects and the unique features of his free and independent opinions and observations in his scientific research as the founder of the Uzbek National School of History...

Key word: Uzbek national historiography of the early 20th century. Uzbek national historiography in the first half of the 20th century. Polat Majidovich Soliyev is the founder of the Uzbek National School of History.

ПОЛАТ СОЛИЕВ – ОСНОВАТЕЛЬ НАУЧНОЙ ШКОЛЫ В УЗБЕКСКОЙ ИСТОРИОГРАФИИ

ВОСТОЧНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ 70220301

-Магистр истории, 2 курс
Джалилов Аскар Юлдашов

Аннотация: В данной статье мы рассмотрим важные аспекты научной деятельности Полата Маджидовича Солиева, видного ученого, работавшего в первой половине XX века, великого представителя нашей узбекской национальной историографии, просвещенного ученого, крупного историка, внесшего уникальный вклад в развитие области узбекской национальной историографии, и основателя первой узбекской национальной историографической школы, а также уникальные черты его свободных и независимых мыслей и наблюдений в его научных исследованиях как основателя узбекской национальной историографической школы...

Ключевое слово: узбекская национальная историография начала XX века. Узбекская национальная историография в первой половине XX века. Пулат Маджидович Солиев — основоположник узбекской национальной школы историографии.

KIRISH...

XX asr boshlariga kelib, ya'ni jadidlar nomi bilan mashhur bo'lgan turkistonlik ma'rifatparvarlar, ziyolilar toifasi asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, Turkistonda (O'zbekistonda) ham ilm-fan ravnaqi uchun, taraqqiyisi uchun hukmron chor (Sarskoe Rossiya) hukumati hamda ularning malayi sifatida " faoliyat yuritgan" mahalliy amaldorlarga, shuningdek, eskilik tarafdorlari bo'lgan bir guruh ruhoniylar qatlamlarining qattiq qarshiliklariga, tinimsiz davom etgan tazyiqlariga qaramasdan, Turkistonda (O'zbekistonda) ilm-fanni rivojlantirish uchun tinimsiz harakat etishgan edi...

ASOSIY QISM...

Mana shunday ulug' yo'lda sharaf bilan jonbozlik ko'rsatgan dastlabki tarixshunos olimlarimizdan biri bo'lgan zot, ilk o'zbek tarixchisi, Turkistonda (O'zbekistonda) dastlabki tarixchilik maktabi (Birinchisi desak ham aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz...) asoschisi, buyuk o'zbek va tatar xalqlarining buyuk farzandi Po'lat Soliyev hisoblanadi... Po'lat (Bulat, Bekbulat, Po'lat) Majidovich Soliyev (1882-1938-yillarda yashagan) haqida qisqacha ma'lumot beradigan bo'lsak, avvallo, XIX asr asrning ikkinchi yarimlariga kelib, bir vaqtlar dunyoning eng qudratli xalqlari hisoblangan turkiylarning ma'lum bir elatlari (urug'i-qabilalari) Chor Rossiyasining bosqinchilik siyosati natijasida o'z yerlariga egaligi huquqlaridan hamda o'z erki-

ozodligidan mahrum etilib, Podsho Rossiyasining tarkibida qaram va mute xalqlar sifatida qolgan bir davrda tavallud topgan edi (Milodiy XIX asrning ikkinchi yarimlarida, to'g'rirog'i 1882-yilga kelib, turkiy xalqlardan Qirim-tatarlar, boshqirdlar, yoqutlar, Chuvashlar, o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar Podsho Rossiya tomonidan vassal (qaram va mute) xalqlarga aylantirilgan edi...). Po'lat Majidovich Soliyev 1882-yil Podsho Rossiya tarkibidagi qadimdan turkiy xalqlar yashab kelgan Astraxan (O'zbekiston tarixidagi XVII asr boshlaridagi Ashtarxoniylar aynan mana shu hududlaridan kerib kelgan edi... Uning yana bir nomi Xojitarxon nomi bilan ham atalgan...) guberniyasida (qaram o'lkasida) asli buxorolik o'zbeklarning mang'it urug'idan bo'lgan Majid Soli isimli dehqonchilik bilan shug'ullanadigan kishi oilasida tug'ilgan edi... Shu o'rinda, bir masalaga to'xtab o'tadigan bo'lsak, ya'ni Turkistondan (O'zbekistondan) anchagina olis bo'lgan Astraxanda (Xojitarxonda) buxorolik o'zbeklarning mang'it urug'idan bo'lgan kishi yoki bir asrdan avvalgi hamyurtlarimiz qanday bu yerlarga borib qolishdi ekan?... Bunda biz ikki taxminiy xulosamizni o'rta tashlaymiz: birinchisi - milodiy XVI asrlarda Buxoro va Samarqand hududlaridan ko'plab mahalliy o'troq o'zbeklar Astraxanga (Xojitarxonga) yoki Volgabo'yi va Sibirbo'yi yerlariga savdo-sotiq qilish uchun borib, shu yerlarda savdogarlik faoliyati yuritish uchun yashab qolishgan.... Ikkinchisi esa Podsho Rossiyasining XIX asrning ikkinchi yarimlarida (60-70-yillarida) o'zbek xonliklariga qarshi harbiy bosqinchilik yurishlari natijasida ko'plab o'zbek oilalari Buxoro amirligidan Volgabo'yi va Sibirbo'yi yerlariga ko'chib o'tishgan bo'lishi ham mumkin..¹ . Po'lat Majidovich Soliyev mana shunday oilada tug'ilgan edi... Otasi asli dehqon bo'lsa-da, biroq asli ilm-ma'rifatga qayishuvchan inson bo'lganligi sababli ham farzanlarini ilm olishga judayam kuchli rag'bat bildirganligi ma'lumdir... Po'lat Majidovich Soliyev dastlab ilmini Astraxandagi o'zlari yashayotgan qishloqdagi eski maktabda keyinroq esa ziyoli inson Aburahmon Umerov tashabbusi bilan tashkil etilgan madrasada o'qib, Qozon shahridagi Muhammadiya va G'oliyada tahsil olib, bir vaqtning o'zida bir qancha tillarni: Arab, fors-tojik, turk (o'zbek) rus tillarini puxta bilish darajasiga erishganligi tarixdan ma'lumdir... Po'lat Majidovich Soliyev faoliyatida dastlab ilm-ma'rifatga oshno bo'lish hamda ilm-ma'rifatni targ'ib qilish kabi yuksak jadidona tashabbus shakllana boshlanadi... Shuning uchun ham bu ziyoli zot XX asr boshlarida Turkistonga (O'zbekistonga) safar qilib, bu jabirdiyda o'lkada ilm-ma'rifat uchqunlarini yoqish harakatiga kirishadi... Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi: Nega aynan Jadidchilik g'oyalari, mafkurasi, tashabbuskorlari ham Podsho Rossiya tarkibidagi Sibirbo'yi va Volgabo'yidagi qardosh turkiy Qirim-tatarlar orasida judayam faol bo'lgan ekan?... Bunga bir nazariy faraz orqali javob beradigan bo'lsak, avvallo, Podsho

¹ Po'lat Majidovich Soliyev. "Buxoro o'lkasi mang'itlar sulolasi davrida". T.: 1926;

Rossiyasining poytaxti Sankt-Peterburgda (Yoki Moskva) XIX asrning o'rtalarida yuz bergan kuchli ma'rifatchilik harakati (Faollari: rus ma'rifatparvarlaridan Gersen, Ogaryov, Belenskiylar edi...) asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, Podsho Rossiyasining tarkibidagi mustamlaka o'lkalariga ham yoyila boshlaganligi hamda bunda Volgabo'yi va Sibirbo'yidagi asosan turkiylarning boshqird, qirim-tatarlar istiqomat qilib kelgan Astraxan, Bog'chasaroy, (Ashtarxon, Xojitarxon), Qozon, Ufa kabi shaharlarga olis Qozog'iston va Turkiston (O'rta Osiyo) yerlariga qaraganda oldinroq yetib kelishi tabiiy ekanligi kunday ravshan edi... Shuning uchun ham buyuk Qirim-tatar xalqlari farzandi bo'lgan Jadidchilik g'oyalarini va harakati tashabbuskori Ismoilbek G'asparalibiy (Gasperinskiy) (1851-1914-yillarda tashagan) bo'lishi tabiiy edi... Aynan Po'lat Majidovich Soliyevning Turkistonga (O'zbekistonga) kelishi buyuk jadid ma'rifatparvari Ismoilbek G'asparalibey faoliyatiga o'xshab ketganligini, unjng 1909-1910-yillarda Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida Segizboy Otaboyev ismli kishi oilasida yashab, shu yerda yangi usul maktabi - jadid maktabiga asos solganligini, shuningdek, Mirzacho'lda, Jalolobodda ham jadid maktablariga asos solganligini, 1913-yil Toshkent shahrida birinchi rus-tatar maktabiga asos solganligini, 1916-yilda Bekobodda yangi usul maktabida bir yil o'qituvchilik qilganligini aytadigan bo'lsak, bu ziyoli inson shaxsida ma'rifatchilik faoliyati kuchli ekanligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.... Po'lat Majidovich Soliyev faoliyatida eng muhim va shonli tarixiy voqea-hodisa bu 1917-yilda noyabr oyida Turkistonda (O'zbekistonda) tashkil topgan O'rta Osiyo xalqlarining qununiy davlat bo'lgan Turkiston Muxtoriyatini tashkil etishdagi eng tashabbuskor faollaridan bo'lganligidir... Shuningdek, olimning tarixshunoslik sohasiga ilk qadam qo'yishi bu 1920-yilda Buxoro amirligi ag'darilib, uning o'rniga Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tashkil etilgandan so'ng Po'lat Majidovich Soliyevga bu hukumat tomonidan ushbu "shonli" tarixiy voqea-hodisalarni, ya'ni inqilob tarixini nashr etish vazifasini olganidan boshlangan edi desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz... Aynan shu vaqtdan boshlab Po'lat Majidovich Soliyevning faoliyati tarix fani va tarixshunoslik sohasi bilan uzviy bog'langan edi hamda 1922-yilda BXSR ning Maorif nozirligining (Hozirgi madaniyat vaziriligi...) ilmiy hodimi sifatida faoliyat yuritib, shuningdek, Buxoro xalq o'qituvchilar institutida mumtoz arab adabiyoti, tarixi, arab tilining nazariyasi va amaliyotidan talabalarga dars bergani jarayonida tarix fani va tarixshunoslik sohasiga qadam-baqadam yaqinlashib, aynan shu ilm-fan sohasi vakili sifatida faoliyat yurita boshlaganligini, shuningdek, 1924-1925-yillarda Moskva shahridagi Sverdlov nomidagi universitetning tarix kafedrasida ham faoliyat yuritib, shu yerda talabalarga tarix ilmidan dars berish asnosida sharq xalqlari tarixi, falsafasi, tili tarixidan boy ma'lumotga ega bo'lishi hamda shu yerdagi Sharq xalqlari markaziy nashriyotida bir qancha ilmiy maqollalar chiqara boshlaganligini, bundan tashqari, 1926-yilga kelib, Leningrad shahriga kelib, shu yerdagi Sharqshunoslik institutida faoliyat boshlaganligini, 1927-yilda esa BXSR ning

talabi bilan o'zbeklarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti tarixi aks ettirilgan **"O'zbeklar tarixi"** nomli kitobni yozish majburiyatini olaganligini, buning uchun esa O'rta Osiyo xalqlarining yozma yodgorliklarini ilmiy jihatdan o'rganish, tadqiq etish hamda jamoatchilikka e'lon qilishga kirishganligini, biroq bu tashabbus olim Po'lat Majidovich Soliyev Samarqandga chaqirib qolingani bo'sdan yozilmasdan qolib ketganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi... Po'lat Majidovich Soliyevning faoliyatini yuqoridagi keltirilgan faktlar orqali mulohaza yuritadigan bo'lsak, avvallo, bunda olimning jadid ma'rifatparvarlari orasidan chiqqanligi, shu ziyolilar muhitida voyaga yetganligi, Jadidchilik g'oyalarini, mafkurasi qattiq o'zida singdirganligi (Bunda olimning ilmiy faoliyatida eng muhim jihat bo'lmish ma'rifatchilik tamoyili yotganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi...), shuningdek, sobiq sho'rolar davrida XX asrning birinchi yarmilarida Po'lat Majidovich Soliyevning ko'plab maoriflik va pedagoglik sohalarga muttasil ravishda jalb qilinganligi hamds asosan ilm-fanning Ijtimoiy gumanitar sohalaridan tarix ilmi va tarixshunoslik sohasida ko'p faoliyat yuritganligi uchun ham keyinchalik uning ilmiy faoliyatida mana shu soha - tarixshunoslik sohasi muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi... Bundan tashqari, olimning bir vaqtning o'zida arab, fors-tojik, rus va yana bir qancha xorijiy tillarni bilishi jarayonida ko'plab tarixiy manbalarni (Asosan, bu tarixiy manbalar arab, fors-tojik, rus tillarida mavjud bo'lib, buning uchun bu ilmiy tarixiy manbalarni o'qish uchun ilmiy tadqiqotichida shu tillarni mumkin qadar darajada bo'lsa-da, bilish talab qilinar edi...) olim Po'lat Majidovich Soliyevda esa bu imkoniyat anchagina edi desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz... Bundan tashqari, olimning Jadidchilik faoliyatida vaqtida Turkiston (O'zbekiston) o'lkasining (o'zining asli ota yurti sanalardi...) eng qadimiy va yuragi sanalgan go'shasi bo'lgan azim Toshkent shahrida maoriflik faoliyatida (Po'lat Majidovich Soliyev Toshkent shahrida 1913-yildan 1916-yilga qadar faoliyat yuritgan birinchi rus-tatar maktabiga asos solgan edi...) asnosida shu azim shaharga mehri anchagina baland edi... Shuningdek, olim Po'lat Majidovich Soliyev faoliyatida eng muhim davr bu 1927-yilda Samarqand Oliy Pedagogika instituti Sharq tarixi kafedrası mudiri (bo'lim boshlig'i) lavozimida ishlash asnosida bo'lib, bunda olim Po'lat Majidovich Soliyev buyuk jadid ma'rifatparvari, ulkan sharq xalqlari bilimdoni, adib va davlat, jamoat arbobi Abdurauf Fitrat, rus sharqshunos olimi V.I. Viyatkin, o'zbek adabiyotshunos olimi O.Sharafiddinov, o'zbek tilshunos olimi G'ozi Olim Yunusov kabi buyuk ilm-fan darg'alari davradida faol ishtirok etganligi uning keyingi olimlik faoliyatida qo'l kelganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi...² Bundan tashqari, olim Po'lat Majidovich Soliyev O'rta Osiyo xalqlari tarixi va falsafasining buyuk bilimdoni hamda chuqur bilimga, salohiyatga ega

² <https://www.tarix.uz>

bo'lganligi bilan alohida ajralib turganligini zamondoshlari yaxshi eslaydi... Shuningdek, olim o'zbek tarixshunos ziyolilari ichida birinchilardan bo'lib, yangi bir uslubda Turkiston (O'rta Osiyo) o'lkasi xalqlarining tarixini ilmiy jihatdan tadqiq qilgan, o'rgangan birinchi o'zbek sharqshunosi va tarixshunos olimi sanalgan degan farazimizni bildirsak va munosabat bildirsak, aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz... Eng muhimi, olim Po'lat Majidovich Soliyev XX asr birinchi yarimlarida Turkiston xalqlari tarixi va qadimiy yodgorliklarini o'rganishihamda ilmiy tadqiqotichlik asnosida bir qancha ilmiy asarlar ham yaratgan edi... Binobarin, olimning 1926-yilda yozgan birinchi kitobi **"O'rta Osiyo tarixi (XI-XV asrlar)"** chiqqan vaqtda qonsiragan mustabid sovet hukumatining qattiq senzurvaviy tazyiqiga uchrab qolgandi. O'shanda mustabid sovet hukumati bu ilmiy kitob yuzasidan 1933-yilda O'zbekiston SSR Kompartiyasi Samarqand shahar bo'limi hamda NKVD komissiyasining qo'shma plenumida (yig'lishida) bu asar haqida qattiq bahs-munozara bo'lib o'tib, olim Po'lat Majidovich Soliyev ilmiy faoliyatiga va shaxsiyatiga nisbatan turli xil bo'tonlar, asossiz ayblar, keskin tanqidlar yog'ilgan edi... Olimni mustabid sovet hukumat o'tmishni, tarixni noto'g'ri buzib talqin qilishda, shuningdek, olimga qadim o'tmish podshohlariga, xonlariga qullarcha sig'inishi, ularni ulug'lashi, qadim o'tmishni maqtab yozishi, sovet hokimiyatiga nisbatan nazar-pisand qilmasligi, sovet davrini emas, balki o'tmish davrni xolisona baholab, maqtab yozishi deya turli xil ayblar qo'yilib, ular bilan qoralangandi... Shunga qaramasdan, olim Po'lat Majidovich Soliyev ilmiy faoliyatdan to'xtab qolmagan edi, balki yanada faol harakat qila olganligini, 1935-yilda O'rta Osiyo Davlat Universitetida (Hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetida) O'rta Osiyo davlatlari ichidan birinchilardan bo'lib, "O'rta Osiyo tarixi" kafedrasini tashkil etilgandan so'ng unga olim Po'lat Majidovich Soliyevning bo'lim boshlig'i etib saylanganligi bunga dalolatdir... Olim 1936-yilda Toshkentga ko'chib keladi (Bunga sabab sifatida O'zbekiston SSR poytaxti Samarqand shahridan Toshkent shahriga ko'chgan edi...) olim shu yerda faoliyat yuritib, O'zbekiston SSR Markaziy ijroiya qo'mitasi qoshida tashkil etilgan Fan qo'mitasida keyinchalik esa bu qo'mita O'zbekiston SSR xalq komissarlari soveti tarkibiga o'tqazilganligi sababli shu yerda olim O'zbekiston tarixi bo'limini boshqargan edi... Olim Po'lat Majidovich Soliyev serqirra ilm egasi sifatida jadal faoliyat yuritib, qadim tariximiz haqidagi ko'plab tarixiy manbalarni o'rganishi, tadqiq qilishi hamda bunda arab tili, fors-tojik tilidagi ko'plab manbalarni o'zbek tiliga tarjima qilib, ilmiy jihatdan izohlab berganligini (Xattoki olim dinimizning muqaddas kitobi bo'lgan Qur'oni Karimning ilk ilmiy sharhlarini o'zbek tiliga tarjima qilganligi ma'lumdir...), shuningdek, olimning 1923-yilda yozgan **"Buxoro tarixi"** hamda 1925-yilda yozilgan **"Mang'itlar saltanati davrida Buxoro o'lkasi"** kabi ilmiy asarlarida Buxoro vohasining qadimiy o'tmishi, tarixi, shuningdek, bu o'lkaning qadimiy iqtisodiy-moddiy, madaniy-ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy hayotidan hamda XVIII asr o'rtalarida Buxoro xonligi tepasiga kelgan

o'zbeklarning mang'it urug'i vakillarining hokimiyatni egallab olganidan boshlab, bu sulola vakillarida davridagi Buxoro vohasining hamda Buxoro shahri aholisining o'ziga xos tarixiy xususiyati va voqea-hodisalarni muhim tarixiy manbalari orqali bayon etib bergan edi... Olimning bu tashabbusi, ya'ni mustabid sho'rolar davrida XX asrning birinchi yarmilari sharoitda Turkiston (O'zbekiston) tarixining eng qadimiy davrlarini, o'zbek xonliklari davrini bu mustabid hukumatdan qo'rqmasdan xolisona yortib berganligining o'zi olimning tarix ilm-fanga hamda tarixshunoslik sohasiga bo'lgan cheksiz hurmati hamda matonati va jasoratidan dalolat berib turibdi... Biroq o'zbek ma'rifatparvarlari va ziyolilariga qarshi mustabid sho'rolar hukumat tomonidan uyushtirilgan 1936-1939-yillardagi qatag'on siyosati olim Po'lat Majidovich Soliyevni ham chetlab o'tmagan edi... Olim 1938-yilda o'zining buyuk jadid maslakdoshlari bilan birgalikda bu qattol siyosatning quboniga aylanib, otuvga hukm qilingan edi... Shunga qaramasdan eng muhim jihati shundaki, olim Po'lat Majidovich Soliyev XX asrning birinchi yarmilariga kelib, birinchilardan bo'lib, ya'ni milliy o'zbek tarixchilik maktabiga asos solib ketganligi biz uchun muhimdir...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Po'lat Majidovich Soliyev. "Buxoro o'lkasi mang'itlar sulolasi davrida". T.: 1926;
2. Po'lat Majidovich Soliyev. "O'zbekiston tarixi (XV-XIX asrlarda)". T.: 1929-yil.
3. Po'lat Majidovich Soliyev. "Buxoro tarixi". T.: 1923.

Internet saytlari:

1. www.Ziyonet.uz
2. www.google.uz
3. [www.til va adabiyot ta'limi.uz](http://www.til_va_adabiyot_ta'limi.uz)
4. www.Scoups
5. [Https://uz.wikipedia](https://uz.wikipedia)
6. [Https://ziyouz.com](https://ziyouz.com)
7. [Https://www.tarix.uz](https://www.tarix.uz)
8. [Https://ru.wikipedia.org](https://ru.wikipedia.org)
9. [Https://jadid.uz](https://jadid.uz)
10. [Https://www. Supportscience.com](https://www.Supportscience.com)